



# XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

*mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani*

## O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA SOMATIK FRAZELOGIK BIRLIKLARNING KONSEPTUAL/SEMANTIK TAHLILI

**Qosimjonova Farangiz Farid qizi**

*Termiz Davlat universiteti tayanch doktoranti*

[farangizkasimzanova@gmail.com](mailto:farangizkasimzanova@gmail.com)

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.15179500>

***Annotatsiya:** Somatizmlar inson tana a'zolariga nisbatan qo'llaniladigan iboralar bo'lib, inson tana a'zolari orqali fikrni obrazli tarzda ifodalashga xizmat qiladi. Maqolada somatik iboralarning o'zbek va ingliz tillaridagi qiyofasi ko'rib chiqilgan, somatizmlar ustida ish olib borgan olimlar, ilmiy tadqiqotlar tahlil qilingan.*

***Kalit so'zlar:** somatizm, ibora, frazeologik birlik, konseptual tahlil, semantik tahlil.*

**Kirish.** Tilshunoslikda inson tana a'zolari bilan bog'liq bo'lgan frazeologik birliklarga nisbatan somatizm atamasi qo'llaniladi. Bu atama ilk bora jahon tilshunosligida eston tili frazeologizmlarini o'rgangan olim F.Bakk tomonidan qo'llanilgan. "Somatik frazeologizm" atamasini esa dastlab rus tilshunos olimi E.M.Mordkovich o'zining "Семантико-тематические группы соматических фразеологизм" ya'ni "Somatik frazeologik birliklarning semantik- mavzuli guruhleri" nomli maqolasida qo'llagan. U o'z tadqiqotida somatik frazeologik birliklarning salmoqli qismi salbiy xususiyatlarni ifodalash funksiyasida namoyon bo'lishini ta'kidlaydi.

Somatik frazeologizmlarni bir til doirasida o'rganish ishlarini 1964-yilda F.Bakk nomzodlik dissertatsiyasida boshlab bergan. U eston badiiy tilidagi somatik frazeologizmlarni o'rgandi va "somatizm" atamasini yoritib berdi [4].

Shundan so'ng bir qator tilshunos olimlar, xususan, M.V.Oryol, V.M.Mokiyenko, R.M. Vayntraub, Y.A.Dolgopoloblar ham somantik iboralarni turli jihatdan tahlil qildilar.

Ma'lumki, insonning o'z tanasini anglash jarayoni shaxsning o'z-o'zini bilish jarayonini rag'batlantiradi. Somatik lug'at qatlami insonlarning atrof-muhit haqidagi bilimlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Somatik frazemalar barcha tillar lug'at fondida salmoqli o'rin egallaydi va aynan shu jihati bilan frazeologik birliklarning boshqa tematik guruhlaridan alohidalikni kasb etadi, qolaversa millatlarning o'ziga xos xususiyatlarini o'zida aks ettiradi. Somatik frazemalar inson, uning ruhiy, fiziologik va hissiy-emotsional holatlarini ifodalaydi.

Ingliz tilida frazeologik birliklarning shakllanishi asosan metaforik yoki metonimik ko'chish asosida sodir bo'ladi. Ingliz va o'zbek somatik frazemalari qatlamida bosh komponentli iboralar ko'plab uchraydi. Har ikki tilda ham bosh so'zi



# XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

*mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani*

“tananing bo‘yindan yuqori, oldingi qismi” ma’nosini ifodalaydi. Ingliz tilida ham bosh komponentli iboralarda “head-bosh” iborasi tananing bo‘yindan yuqori qismi ma’nosi bilan birga aqliy faoliyat, tafakkur vositasi sifatida ham talqin qilinadi.

Have a good head on your shoulders – zukko bo‘lish

To be a head taller than someone – kimdandir aqliy jihatdan ustun bo‘lish

“Bosh komponentli iboralarda bosh atamasi “donolik,aqllilik” kabi ijobiy mazmuni ham ifodalaydi:

A clear head – murakkab vaziyatga ham osonlikda yechim topa olish, xotirjam fikrlash

Boshning yo‘qligi esa salbiy ma’no ottenkalarini beradi:

Lose one’s head – sarosimaga tushish, aqldan ozish

Have no head for something – nimanidir tushuna olmaslik

Miyya faoliyati bilan bog‘liq yana bir qancha iboralar mavjudki, salbiy ma’no ifodalashga xizmat qiladi:

Weak in the head – ruhiyati zaif

Soft in the head – ahmoq bo‘lish

Olima Z.Alimova ingliz tilida mavjud somatik frazeologik birliklarni anglatadigan ma’nosiga ko‘ra tasniflab quyidagi turlarga bo‘lgan:

Osteonimik – inson organizmining skelet sisitemalari bilan ifodalanuvchi frazeologizmlar: skin and bones – qoq suyak

Angionimik – inson organizmining qon aylanish sistemasi bilan bog‘liq so‘zlar bilan ifodalanuvchi frazeologizmlar: blue blood – oqsuyak

Splanchnonimik – inson organizmining ichki organlari bilan bog‘liq frazeologik birliklar: from the bottom of the heart – chin qalbdan

Sensonimik – inson organizmining sezish a‘zolari bilan bog‘liq bo‘lgan frazemalar: to be all ears – butun tanasi quloqqa aylanib

Somatik iboralarda har bir xalqning ko‘p asrlik tajribasi, turmush tarzi, ma’naviy qiyofasi aks etadi. Tilshunos olim X.Hamidov somatik iboralar haqida fikr bildirib shunday deydi: “Inson hayoti bilan bog‘liq frazeologizmlarni shakllantirgan asoslardan birinchisi insonning tana a‘zolari nomlari(somatizmlar)dir. Bunday iboralar somantizmlar vositasida yuzaga kelgan bo‘lib, turg‘unlashgan holda insonning idroki, tafakkuri, e’tiqodi, his-tuyg‘ulari, jamiyat bilan muomala munosabati, xulq-atvori, tashqi ko‘rinishini ifodalaydi. Ular ma’no jihatdan emas, balki, tuzilishi, obrazlilik bilan ham bir-biriga mos va yagona ichki shakl asosida yuzaga kelgan” [1]. O‘zbek tilidagi frazeologik birliklarning katta qismini aynan somatik iboralar tashkil etadi. Tilshunos olim A.Isayev o‘z izlanishlarida o‘zbek



## XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

*mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani*

tilida “ko‘z”, “og‘iz”, “qo‘l”, “yurak” komponentli iboralar eng mahsuldorligini ta’kidlagan.

Xulosa qilib aytganda, somatik iboralar o‘zbek va ingliz frazeologiyasining asosiy katta qismini tashkil etib, har ikki tilda ham bu turdagi iboralar o‘ziga xos umumiy va xususiy jihatlarga ega.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Hamidov X. Turk frazeologiyasi masalalari. –Toshkent: Bayoz, 2019
2. O‘zbek tili izohli lug‘ati,-Toshkent:O‘zbekiston nashriyoti, 2021.
3. Rahmatullayev.Sh.”Nutqimiz ko‘rki” .- Toshkent. Fan - 1970.
4. Alimova Z,Mirzayeva D, Xaitova M – “ Ingliz tilida somatik frazeologik birliklar” O‘zbekiston fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali, 2022-y.
5. Yo‘ldoshev.B “Frazeologik uslubiyat asoslari”. – Samarqand: SamDU nashri, 1999.